




## TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-sentyabr)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog‘lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o‘z vaqtida xaridorlarga yetkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma’lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo‘lib to‘lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o‘shishiga xizmat qiladi.


2021- yil yanvar-sentyabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 3883,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 637,5 mln. AQSh dollariga yoki 19,6 % ga ko‘paydi.






TSAda eksport hajmi 1458,6 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 120,3 %) va import hajmi 2424,5 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 119,2 %) yetdi. Hisobot davrida 965,9 mln. AQSh dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

## TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-sentyabr, mln. AQSh dollari)



## TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2020- yil yanvar-sentyabrga nisbatan, %da)





## TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-sentyabr, mln. AQSh dollari)


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, %da
Rossiya Federatsiyasi	836,0	224,0	612,0	21,5
Turkiya	781,3	632,5	148,8	20,1
Qozog'iston	681,9	121,0	560,9	17,6
Xitoy	485,1	125,5	359,6	12,5
Braziliya	143,7	0,0	143,7	3,7
Koreya Respublikasi	103,7	11,6	92,1	2,7
Belarus	91,0	12,8	78,2	2,3
Ukraina	82,5	34,9	47,6	2,1
Germaniya	58,7	8,5	50,2	1,5
Tojikiston	54,9	49,0	5,9	1,4
Afg'oniston	52,6	52,6	0,0	1,4
Qirg'iz Respublikasi	48,1	33,7	14,4	1,2
Italiya	46,0	8,2	37,8	1,2
Niderlandiya	34,2	20,8	13,4	0,9
Litva	30,3	0,5	29,8	0,8
Irlandiya	30,4	0,0	30,4	0,8
Qatar	28,8	28,8	0,0	0,7
Singapur	24,8	24,3	0,5	0,6
Eron Islom Respublikasi	23,4	2,3	21,1	0,6
Ozarbajon	21,3	3,7	17,6	0,5



Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 47,1 %ni hamda o‘shish sur‘ati 2020- yilning shu davriga nisbatan 123,5 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida 52,9 %ni (2020- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 54,4 %ni tashkil qilgan), o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 116,4 %ni tashkil etdi.

## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2021- yil yanvar-sentyabr, % hisobida)








## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2021- yil yanvar-sentyabr, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo'shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Qatar va Singapur bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko'rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston va Xitoy davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.






## TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-sentyabr)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko‘mak berilmoqda.

2021-yil yanvar-sentyabr oylari yakuni bilan 1458,6 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2020- yilning shu davriga nisbatan 120,3 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,5 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (71,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (9,7 %), turli xil tayyor buyumlar (7,7 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (4,8 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (3,8 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (1,7 %) guruhlariga to‘g‘ri kelmoqda.





## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-sentyabr)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	<b>1458,6</b>	<b>487,3</b>	<b>971,3</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	141,9	82,6	59,3	9,7	16,9	6,1
Ichimliklar va tamaki	2,0	1,9	0,1	0,1	0,4	0,01
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	69,7	44,7	25,0	4,8	9,2	2,6
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	0,3	0,2	0,1	0,01	0,01	0,01
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,9	0,1	0,8	0,1	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	55,6	38,2	17,4	3,8	7,8	1,8
Sanoat tovarlari	1044,9	196,0	848,9	71,6	40,3	87,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	24,1	14,2	9,9	1,7	2,9	1,0
Turli xil tayyor buyumlar	112,3	108,3	4,0	7,7	22,2	0,4
Xizmatlar	6,9	1,1	5,8	0,5	0,2	0,6





## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI (2021- yil yanvar-sentyabr)


2021-yilning yanvar-sentyabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020- yilning mos davriga nisbatan, ichimliklar va tamaki, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar, sanoat tovarlari, mashinalar va transport asbob-uskunalari hamda turli xil tayyor buyumlarda o‘shish kuzatildi.

Tarkibi	2020- yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>120,3</b>	<b>107,9</b>	<b>127,7</b>
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	89,3	70,6	141,3
Ichimliklar va tamaki	122,0	137,8	31,9
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	109,3	144,5	76,2
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	37,2	29,9	37,7
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	148,9	133,9	197,7
Sanoat tovarlari	125,7	111,4	129,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	103,1	108,2	96,5
Turli xil tayyor buyumlar	130,3	129,7	151,7
Xizmatlar	91,3	116,7	87,7





## VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-sentyabr)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Xitoy, Afg'oniston, Tojikiston va Ukraina hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 1239,5 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 85,0 %ini tashkil qiladi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 96,6 mln. dollar qiymatga ega 174,3 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2020- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 19,5 %ga kamaygan, naturada – 14,6 %ga kamaygan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 53,0 mln. AQSh dollariga teng 113,1 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 9,9 %ga o'sgan), shuningdek, 28,6 mln. AQSh dollari qiymatidagi 36,7 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 65,4 %ga teng).

### 2021- yil yanvar-sentyabr, mln. AQSh



Meva va rezavorlar  
36,7 ming tonna  
28,6 mln. AQSH dollari



Uzum  
14,1 ming tonna  
10,0 mln. AQSH dollari



Yeryong'oqlar  
2,4 ming tonna  
2,8 mln. AQSH dollari



Sabzavotlar  
113,1 ming tonna  
53,0 mln. AQSH dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 81,6 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 5,6 %ini tashkil qiladi.




## TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-sentyabr)

Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-sentyabr oylari mobaynida import hajmi 2424,5 mln. AQSh dollari (2020- yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 119,2 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (26,6 %), sanoat tovarlari (17,3 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (22,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (14,6 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (8,3 %) hisobiga to'g'ri keldi.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)
- Hayvon va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar
- Sanoat tovarlari
- Turli xil tayyor buyumlar
- Xizmatlar
- Ichimliklar va tamaki
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Mashinalar va transport asbob-uskunalar
- Boshqa turdagi tovarlar



## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-sentyabr)

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>2424,5</b>	<b>1341,4</b>	<b>1083,1</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	353,4	146,1	207,3	14,6	10,9	19,1
Ichimliklar va tamaki	6,9	6,5	0,4	0,3	0,5	0,1
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	534,9	516,0	18,9	22,1	38,5	1,7
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	70,2	69,0	1,2	2,9	5,1	0,1
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	59,1	53,8	5,3	2,4	4,0	0,5
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	201,1	61,3	139,8	8,3	4,6	12,9
Sanoat tovarlari	419,9	291,3	128,6	17,3	21,7	11,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	644,7	171,1	473,6	26,6	12,8	43,7
Turli xil tayyor buyumlar	101,5	19,5	82,0	4,2	1,5	7,6
Boshqa tovarlar	10,2	4,0	6,2	0,4	0,2	0,6
Xizmatlar	22,6	2,8	19,8	0,9	0,2	1,8

Importning eng katta ulushi, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (38,5 %), sanoat tovarlari (21,7 %) MDH mamlakatlariga to‘g‘ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (43,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (19,1 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.






## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2021- yil yanvar-sentyabr, % hisobida)

Tarkibi	2020- yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>119,2</b>	<b>130,3</b>	<b>107,9</b>
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	133,0	69,3	3,8 m.
Ichimliklar va tamaki	181,4	189,9	98,6
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	188,1	2,1 m.	57,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	94,7	94,6	100,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	99,0	119,7	35,8
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	135,2	152,4	128,8
Sanoat tovarlari	111,4	119,7	96,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	98,0	133,8	89,4
Turli xil tayyor buyumlar	95,7	121,5	91,0
Boshqa tovarlar	50,5	51,1	50,0
Xizmatlar	63,2	26,9	78,4





## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-sentyabr)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Xitoy, Turkiya, Braziliya, Koreya Respublikasi va Belarus hamkor davlatlaridan jami import hajmi 1995,3 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 82,3 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi**  
Tel.: (71) 202-86-59